



"O'ZBEKISTON SANOAT-QURILISH BANKI" AKSIYADORLIK TIJORAT BANKI
АКЦИОНЕРНЫЙ КОММЕРЧЕСКИЙ БАНК "УЗБЕКСКИЙ ПРОМЫШЛЕННО-СТРОИТЕЛЬНЫЙ БАНК"

CHORA-TADBIRLAR REJASI

№ 34

«21» yanvar 2025 y.

“O‘zsanoatqurilishbank” ATB transformatsiyasi va moliyaviy barqarorligini ta’minlash bo‘yicha 2025-yilda amalga oshirilishi rejalashtirilgan chora-chadbirlar rejasi

№	Tadbir nomi	Amalga oshirish mexanizmi	Bajarish muddati	Ma’sullar
1	I. Bank tomonidan 2025-yilga mo‘ljallangan kreditlar ajratish rejasi			
1.1	Bank tomonidan yuridik va jismoniy shaxslarga jami 33 trln so‘m kredit ajratish	1. Tasdiqlangan biznes rejaga muvofiq, bankning tarmoqlar va hududlar qirqimida 2025-yil kreditlash rejasi bankning quyi tarkibiy bo‘linmalarga ijro uchun taqdim etish. 2. Amalga oshirilgan ishlar yuzasidan bank kengashiga hisobot berib borish. Bunda, 2025-yilda ajratiladigan kreditlar hududlar qirqimida: - Qoraqalpog‘iston Respublikasi 1,6 trln so‘m; - Andijon viloyati 1 trln so‘m; - Buxoro viloyati 1,1 trln so‘m; - Jizzax viloyati 1,9 trln so‘m; - Qashqadaryo viloyati 1,4 trln so‘m; - Navoiy viloyati 1,6 trln so‘m; - Namangan viloyati 1,2 trln so‘m; - Samarqand viloyati 1,2 trln so‘m;	10.04.2025	F.T.Abduraxmanov, R.Jukov, A.Rustamov, A.A.Mananov, Sh.Sh.Shaaxmedov

№	Tadbir nomi	Amalga oshirish mexanizmi	Bajarish muddati	Ma'sullar
		- Surxondaryo viloyati 1,3 trln so'm; - Sirdaryo viloyati 1,1 trln so'm; - Toshkent viloyati 3,9 trln so'm; - Farg'ona viloyati 1,8 trln so'm; - Xorazm viloyati 1,1 trln so'm; - Toshkent shahri 12,8 trln so'm. (2025-yil yakuniga qadar)		
1.2	Jismoniy shaxslarga iste'mol ehtiyojlarini qondirish maqsadida 6 trln so'm miqdorida kreditlar ajratish.	1. Bankning biznes-rejasi hamda risk appetitidan kelib chiqqan holda jismoniy shaxslarga quyidagi kredit mahsulotlari ajratish: - ipoteka 1,5 trln so'm; - avtokredit 400 mlrd so'm; - mikroqarz va overdraftlar (boshqa maqsadsiz kreditlar) 3,9 trln so'm; - iste'mol kreditlari 40 mlrd so'm 2. Bankning bank mahsulotlarini sotishga mas'ul bo'linmasi tomonidan joylardagi bank xizmatlari markazlari orqali kreditlar ajratilishini tashkil etish; 3. Bankning chakana kredit mahsulotlariga xizmat ko'rsatishda masofaviy xizmat turlari salmog'ini oshirish (2025-yil davomida)	10.04.2025	R.Jukov, A.A.Mananov
1.3	Qishloq xo'jaligi sohasida loyihalarni moliyalashtirish.	Qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirish, qayta ishlash, eksport qilish maqsadida 1,4 trln so'm kredit ajratish. Mazkur loyihalarni quyidagi resurs manbalari hisobidan moliyalashtirish:	10.04.2025	F.T.Abduraxmanov, G.Xakimov

№	Tadbir nomi	Amalga oshirish mexanizmi	Bajarish muddati	Ma'sullar
		Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Qishloq xo'jaligini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash jamg'armasi – 1 153 mlrd so'm; Bankning o'z mablag'lari hisobidan – 236 mlrd so'm (2025-yil davomida)		
1.4	Onlayn faktoring bozorini rivojlantirish maqsadida 800,0 mlrd so'm faktoring xizmatlari ko'rsatish.	Tadbirkorlik sub'yektlari uchun qo'shimcha qulaylik yaratish maqsadida faktoring amaliyotlarini onlayn platformada moliyalashtirish orqali 20 dan ortiq hamkor korxonalariga sotuv jarayonini tashkil qilib, 150 dan ortiq mol yetkazib beruvchilarni 800,0 mlrd so'm miqdorida moliyalashtirish. (2025-yil davomida)	10.04.2025	R.Jukov, Sh.Sh.Shaaxmedov
2	II. Biriktirilgan hudud va sohalarda amalga oshiriladigan ishlar			
2.1	Hududlarda qurilish materiallari ishlab chiqarish sohasida yangi ish o'rinlarini yaratish bo'yicha aniq choralar va maqsadli ko'rsatkichlar	2025-yil yakuniga qadar qurilish materiallari ishlab chiqarish hajmini 50 trln so'mga va eksportini 1,2 mlrd dollarga yetkazish hamda import hajmini 100 mln dollarga qisqartirish choralari ko'rish; Qiymati 2,4 mlrd doll bo'lgan 204 ta loyihalarni amalga oshirish orqali 14,2 ming nafar ish o'rinlari yaratish. (2025-yil davomida)	10.04.2025	Sh.M.Yusupov, Sh.X.Xalilov
2.2	Hududlarda Qurilishmateriallar sohasini rivojlantirish maqsadida Bank tomonidan	Hududlar 2025-yilda sohani rivojlantirish maqsadida tijorat	10.04.2025	Sh.M.Yusupov, Sh.Sh.Shaaxmedov

№	Tadbir nomi	Amalga oshirish mexanizmi	Bajarish muddati	Ma'sullar
	hamda tijorat banklari bilan hamkorlikda moliyalashtirish choralarini ko'rish.	banklari bilan hamkorlikda kredit mablag'lari ajratish hamda investitsiyalarni o'zlashtirish: 1) 184 mln doll kredit mablag'lar ajratish; 2) 1,6 mlrd doll xorijiy kreditlar va investitsiyalarni o'zlashtirish; 3) 14,2 ming nafar ish o'rinlari yaratish. Ajratilgan kreditlar bo'yicha Bank rahbariyatiga ma'lumotlarni kiritib borish (2025-yil davomida)		
2.3	Biriktirilgan hududlarda 2025-yil davomida amalga oshirilishi rejalashtirilgan loyihalar	Qoraqalpog'iston Respublikasida qiymati 989 mln.doll. (o'z mablag'i 328,5 mln.doll., bank krediti 244,3 mln.doll., xorijiy inves. 416 mln.doll.) bo'lgan 454 ta loyihalarni amalga oshirish hamda 11,2 ming nafar ish o'rinlari yaratish; Surxondaryo viloyatida qiymati 828 mln.doll. (o'z mablag'i 338,4 mln.doll., bank krediti 162,7 mln.doll., xorijiy inves. 327 mln.doll.) bo'lgan 542 ta loyihalarni amalga oshirish hamda 13,9 ming nafar ish o'rinlari yaratish. (2025-yil davomida)	10.04.2025	Sh.M.Yusupov, F.Abduvaliyev
3	III. "Mahallabay" ishlash tizimini takomillashtirish			
3.1	Bankka biriktirilgan mahallalarda "Sayxunobod" tajribasi asosida 29 ming mikroloyihalarga 0,9 trln so'm ishlarni tashkil etish natijasida 45 mingta ish o'rnini yaratish.	Bankka biriktirilgan 727 ta mahallalarning har birida tijorat banklari tomonidan jami 40 tadan mikroloyihalarni amalga oshirishni muvofiqlashtirish hamda	10.04.2025	Sh.M.Yusupov, F.Abduvaliyev

№	Tadbir nomi	Amalga oshirish mexanizmi	Bajarish muddati	Ma'sullar
		belgilangan reja-ko'rsatkichlarini bajarilishini nazoratga olish (2025-yil davomida)		
3.2	Hududlarda "Uychi" tajribasi asosida tadbirkorlar bilan 1 548 ta uchrashuv o'tkazish.	Bankning hududiy boshqarmalari rahbarlari va mas'ul xodimlari tomonidan 2025-yil davomida jami 1 548 ta uchrashuvlarni tashkil etish bo'yicha grafik tayyorlash; Grafik asosida tadbirkorlar va Bank yuridik mijozlarini bilan uchrashuvlarda ishtirok etishini ta'minlash, o'tkazilgan uchrashuvlar to'g'risidagi ma'lumotlarni "bank-kredit.uz" platformasidagi "Uchrashuvlar" bo'limiga kiritib borish hamda uchrashuvlarda ko'tarilgan masalalarni hal etilishini nazorat qilish (2025-yil davomida)	10.04.2025	Sh.M.Yusupov, F.Abduvaliyev
3.3	Bank rahbariyatiga biriktirilgan eng og'ir mahallalar bo'yicha ishlarni tashkil etish. Bankning hududlardagi rahbar xodimlariga biriktirilgan eng kambag'al 280 ta oila bilan ishlash.	Bank rahbariyatiga biriktirilgan eng og'ir mahallalarning infrastrukturasi yaxshilash maqsadida davlat byudjetidan ajratiladigan pul mablag'larini to'g'ri ishlatilishini nazoratga olish, ushbu mahallalarning yashash sharoitini yaxshilash bo'yicha olib borilgan ishlarni muvofiqlashtirish; Bankning hududlardagi rahbar xodimlariga biriktirilgan eng kambag'al 5 tadan oilalar bilan PQ-330-sonli qarorga asosan belgilab berilgan mezonlar	10.04.2025	Sh.M.Yusupov, F.Abduvaliyev

№	Tadbir nomi	Amalga oshirish mexanizmi	Bajarish muddati	Ma'sullar
		bo'yicha ishlarni olib borilishini nazoratga olish (2025-yil davomida)		
4	IV. Kichik biznesni moliyaviy qo'llab-quvvatlashning uzluksizligi va barqarorligini ta'minlash, bank va mikromoliyalashtirish xizmatlaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish (PQ-312)			
4.1	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 7-sentabrdagi PQ-312-son qaroriga asosan "Kichik biznesni uzluksiz qo'llab-quvvatlash" dasturi doirasida kichik tadbirkorlik sub'yektlariga 400 mlrd so'm miqdorida kreditlar ajratish	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 7-sentabrdagi PQ-312-son qaroriga asosan kredit olish istagidagi kichik tadbirkorlik sub'yektlarini aniqlash; Qaror talablariga asosan kichik tadbirkorlik sub'yektlariga 7-yilgacha muddatga kreditlar ajratish choralari ko'rish (2025-yil davomida)	10.04.2025	Sh.M.Yusupov, F.Abduvaliyev
5	V. Bank aktivlari sifatini yaxshilash va kredit portfelni sog'lomlashtirish			
5.1	Bank kredit portfelidagi 6 955 ta kredit shartnomalari bo'yicha 1,9 trln so'mlik muammoli kreditlar va ular bo'yicha hisoblangan 0,3 trln so'mlik foizlarni qisqartirish.	1. Garovdagi mulklarini sotish hisobiga 6 ta kredit shartnomasi bo'yicha 231 mlrd so'm kredit qarzdorliklarini undirish choralari ko'rish (Tashkent Cotton Textile Cluster MChJ – 231 mlrd so'm); 2. Mijozlarning moliyaviy holatidan kelib chiqib 376 ta kredit shartnomalari bo'yicha 22,1 mlrd so'mlik qarzdorliklarni kelgusida kutilayotgan pul tushumlari orqali muddati o'tgan to'lov grafiklarini so'ndirish choralari ko'riladi; 3. Sud va huquqni muhofaza qiluvchi organlar yordamida 3 723 ta kredit shartnomalari bo'yicha	31.01.2025	S.A.Abduvaliev, M.Nabiyev, B.Davirov

№	Tadbir nomi	Amalga oshirish mexanizmi	Bajarish muddati	Ma'sullar
		839,5 trln so'mlik muammoli kreditlarni undirish choralari ko'riladi. Jumladan, - sud orqali – 177 mlrd so'm (1 171 ta qarzdor); - majburiy ijro byurosi orqali – 509 mlrd so'm (420 ta); - garovdagi mulklarni bank balansiga olish hisobidan – 52,4 mlrd so'm (31 ta); - sug'urta kompaniyalari to'lovlari hisobidan – 90,5 mlrd so'm (1 931 ta); - jinoyat alomatlari mavjud holatlar bo'yicha huquqni muhofaza qiluvchi organlarga murojaat etish orqali – 10,6 mlrd so'm (170 ta); 4. Undirish imkoniyati mavjud bo'lmagan 196 ta kredit shartnomalari bo'yicha 258,2 mlrd so'mlik qarzdorliklar hisobini balansdan tashqari hisobraqamlarga o'tkazish; 5. Mijozlarning pul tushumi hisobidan 92 ta kredit shartnomalari bo'yicha 460 mlrd so'mlik qarzdorlik so'ndiriladi. (2025-yil davomida)		
5.2	Hisobi bank balansidan tashqarida aks ettirilib kelayotgan 500 mlrd so'mlik muammoli aktivlar hamda ular bo'yicha hisoblangan 100 mlrd so'mlik foiz qarzdorliklari hajmini qisqartirish.	1. Hisobi bank balansidan tashqarida aks ettirilib kelayotgan 150 mlrd so'mlik muammoli aktivlar bo'yicha garovdagi mulklarni sotish va bank balansiga olish hisobiga qisqartirish;	31.01.2025	S.A.Abduvaliev, M.Nabiyev, B.Davirov

№	Tadbir nomi	Amalga oshirish mexanizmi	Bajarish muddati	Ma'sullar
		2. Bank kengashi tomonidan muammoli qarzdorliklarni hisobdan chiqarish bo'yicha qaror qabul qilish; 3. Bankning tegishli tarkibiy bo'linmalari tomonidan muammoli qarzdorliklarni hisobdan chiqarish; 4. Sud va huquq tartibot organlari orqali 450 mlrd so'mlik qarzdorliklarni undirish choralari ko'rish (2025-yil davomida)		
5.3	330 mlrd so'mlik boshqa muammoli aktivlarni sotish va undirish choralari ko'rish.	1. Bankning 175 mlrd so'mlik 102 ta mol-mulklar "E-auksion" platformasi orqali sotiladi; 2. Bank faoliyatiga xos bo'lmagan (jami qiymati 75 mlrd so'mlik 20 ta mol-mulklar) mulklar Davlat aktivlarini boshqarish agentligiga o'tkazish; 3. Muddati o'tgan qarzdorliklari mavjud bo'lgan 67 ta 80,6 mlrd so'mlik bo'lib-bo'lib to'lash sharti bilan sotilgan mol-mulklar bo'yicha to'lovlarni undirish (2025-yil davomida)	10.04.2025	S.A.Abduvaliev, M.Nabiyev, B.Davirov
5.4	Kredit portfelida Kredit mahsulotlarining maksimal ulushi bo'yicha risk-appetit chegaralarini belgilash	Statistik va matematik metrikalar yordamida kredit portfelida kredit mahsulotlarining maksimal ulushini aniqlash va risk-appetit chegara ko'rsatgichini belgilash (2025-yil davomida)	31.01.2025	S.Ismagilov, D.Xujayev
5.5	Kredit portfelida TOP 30 qarzdorlarning maksimal ulushi bo'yicha risk-appetit chegaralarini belgilash	Statistik va matematik metrikalar yordamida kredit portfelida kredit mahsulotlarining maksimal	31.01.2025	S.Ismagilov, D.Xujayev

№	Tadbir nomi	Amalga oshirish mexanizmi	Bajarish muddati	Ma'sullar
		ulushini aniqlash va risk-appetit chegara ko'rsatgichini belgilash. (2025-yil davomida)		
6	VI. 2025-yilga mo'ljallangan bank transformatsiyasi jarayoni			
6.1	Bankda amalga oshirilayotgan transformatsiyaning maqsadi sifatida bankning iqtisodiyotda va bank tizimida o'z o'рни va mavqeyiga ega bo'lishi	Bankning transformatsiya dasturida ko'zlangan maqsadlarga erishishni ta'minlash va bank tizimida o'z mavqeyini yanada mustahkamlash maqsadida bank 2025-yilda quyidagi ustuvor yo'nalishlarni rivojlantiradi: - Islomiy moliyalashtirish tamoyillari asosida mahsulotlar ishlab chiqish; - Biznes jarayonlarini boshqarish uchun Task mining va Process mining tizimini joriy qilish - Qarzdorliklar bilan ishlash bo'yicha yagona markaz yaratish hamda o'rta biznesni individual yondashuvi asosida yangi biznes modeli joriy etish; - Sun'iy intellektni joriy qilish bo'yicha firibgarliklarga qarshi kurashish (Antifraud) tizimi avtomatlashtirish ishlarini yakunlash; - Kredit jarayonlarini raqamlashtirishni takomillashtirish; - Yuridik shaxslar uchun SQB Business dasturini temir yo'l axborot tizimiga integratsiya qilish; - Sun'iy intellekt yo'nalishida Koll-markazga tezkor javoblar,	10.04.2025	A.A.Ergashev, B.Saidxonov, A.KenjayeV, A.Rustamov, A.Soliyev, B.Davirov, M.Nabiyev

№	Tadbir nomi	Amalga oshirish mexanizmi	Bajarish muddati	Ma'sullar
		Firibgarlik holatlarni bashorat qilish hamda Mijozlarni FACE ID orqali aniqlash va ularga ehtiyojidan kelib chiqib, maslahatlar beruvchi sun'iy intellekt tizimlarini joriy etish. (2025-yil davomida)		
6.2	Bankni xususiylashtirish jarayonini jadallashtirish	Majburiyatsiz takliflar qabul qilish (NBO); oldi-sotdi shartnoma loyihasini tayyorlash; investorlar tomonidan Due diligence o'tkazish; investorlardan majburiyati takliflar qabul qilish (BO); istiqbolli investorlar bilan oldi-sotdi shartnoma (SPA) imzolash hamda tegishli normativ-huquqiy hujjatlarni rasmiylashtirish	31.12.2025	Sh.I.Yakubov, A.Xakimov
7	VII. Xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlikni rivojlantirish			
7.1	Xalqaro moliyaviy institutlar va tijorat banklaridan kredit liniyalar jalb qilish	1. Bank ehtiyojidan kelib chiqqan holda, tegishli xalqaro moliya institutlari va xorijiy banklardan kredit liniyalarini jalb qilish; 2. Hukumat kafolatisiz to'g'ridan-to'g'ri jalb qilingan xorijiy kredit liniyalar qiymatini 900 mln AQSh dollariga yetkazish (2025-yil davomida)	10.04.2025	Sh.I.Yakubov, A.Xakimov
8	VIII. "IT" sohasini takomillashtirish va sun'iy intellektni joriy qilish			
8.1	Zamon talablariga mos keluvchi Internet-banking xizmatlarini takomillashtirish	Mijozlarga qo'shimcha qulayliklar yaratish maqsadida internet-	10.04.2025	R.Jukov, T.Norov

№	Tadbir nomi	Amalga oshirish mexanizmi	Bajarish muddati	Ma'sullar
		banking dasturida yangi Masofaviy bank xizmatlarini joriy qilish: - Internet-bankingda mijozlarni onlayn ro'yxatdan o'tkazish tizimini yaratish; - Hisob raqamlarni masofadan ochish jarayonini joriy etish; - Yuridik shaxslarga avtomatik skoring asosida onlayn kredit ajratishni joriy etish; Masofadan biznes kartaga buyurtma berish xizmatini yo'lga qo'yish.(2025-yil davomida)		
8.2	Jismoniy va yuridik shaxslarga berilgan kreditlarni monitoring qilish jarayonlarini, yuridik shaxslarga berilgan kreditlar bo'yicha muddati o'tgan qarzlarni undirish jarayonlari bo'yicha loyiha oldi ishlari	- Bankda joriy etilgan "Hive Platform" plaformasida "Monitoring" va "Collection" modullari faoliyatini to'liq yo'lga qo'yish; - "Legal Collection" modulini yanada takomillashtirish; - Monitoring jarayonlarini avtomatlashtirishda sun'iy intellekt orqali amalga oshirishni bosqichma – bosqich yo'lga qo'yish (bunda yakuniy muddat 2026-yil 4-choragi belgilanadi); Monitoring jarayonlarida garovlarni monitoring qilishni outsorsing korxonalar yordamida amalga oshirishni yo'lga qo'yish. (2025-2026 yillar)	10.04.2025	A.A.Ergashev, S.A.Abduvaliev, S.Ismagilov, A.Omonov, A.Kenjayeov, B.Davirov, M.Nabiyev, N.Umarov, U.Aminova
8.3	AML tizimini amaliyotga joriy qilish ishlarini yakunlash	AML tizimini keng amaliyotga joriy etish: - Tashqi vendor bilan hamkorlikda AML tizimini avtomatlashtirish;	10.04.2025	S.Ismagilov, A.Yoqubjonov, A.Kenjayeov

№	Tadbir nomi	Amalga oshirish mexanizmi	Bajarish muddati	Ma'sullar
		- Bosh prokuratura huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamentining "MARKAZ" dasturi bilan AML dasturi integratsiya qilish; Mijozlar va ular bilan bog'liq shaxslar (o'zaro aloqador shaxslar) o'rtasidagi sxemalarning ifodalanishini avtomatlashtirish. (2025-yil davomida)		
9	IX. Bank moliyaviy barqarorligini ta'minlash			
9.1	Bank likvidliligini barqaror ta'minlash	1. Bank kreditorlari va mijozlari oldidagi majburiyatlarini o'z vaqtida bajarishi uchun jami aktivlar tarkibida yuqori likvidlik aktivlar ulushini 10 foizdan kam bo'lmagan miqdorda bo'lishini ta'minlash; 2. Bank resurslari manbasini valyuta, muddatlari, turlari bo'yicha deversifikatsiya qilgan holda aktivlar va ularning manbalari mutanosibligini ta'minlash; 3. Bank depozit bazasini muntazam o'stirib borish, tasdiqlangan strategiyaga muvofiq 2025-yil yakuniga qadar depozit bazasi hajmini 28 431 mlrd so'mga yetkazilishini ta'minlash: Jumladan, yuridik shaxslarning depozitlar qoldig'ini 19 980 mlrd so'mga aholi omonatlari qoldig'ini 8 451 mlrd so'mga;	10.04.2025	F.T.Abduraxmanov, O.Ekler, Sh.I.Yakubov, D.Sadirov, A.Xakimov

№	Tadbir nomi	Amalga oshirish mexanizmi	Bajarish muddati	Ma'sullar
		4. Bankning jalb qilingan kredit liniyalari hajmini oshirib borish va avval jalb qilingan kreditlarni o'z vaqtida va to'liq qaytarilishini nazoratga olish, jumladan: xorijiy kredit liniyalari hisobidan 8 551 mlrd so'mlik mablag'lar jalb qilish; mahalliy kredit liniyalari hisobidan 3 107 mlrd so'mlik mablag'lar jalb qilish; jami kredit liniyalari bo'yicha 14 714 mlrd so'mlik mablag'lar qaytarilishini ta'minlash; Natijada, 2025-yil yakunida likvidlik me'yori o'rnatilgan talablar darajasida ta'minlash, jumladan: Likvidlikni qoplash me'yori ko'rsatkichini 118 foiz darajasida Sof barqaror moliyalashtirish me'yori 110 foiz darajasida ta'minlash (2025-yil davomida)		
10	X. Bank daromadlilikini oshirish va rentabelligini ta'minlash			
10.1	Aktivlar rentabelligini 1,5 foiz va kapital rentabelligini kamida 11,3 foizdan kam bo'lmasligini ta'minlash	1. Qisqa muddatli va yuqori daromadli kreditlar turlarini ko'paytirish, shu jumladan revolver kreditlar ajratishni yo'lga qo'yish; 2. Moliyaviy xizmat turlarini, ayniqsa chakana xizmatlar turlarini ko'paytirish va rivojlantirish; 3. 2025-yilga mo'ljallangan bank strategiyasi va biznes reja	10.04.2025	D.Sh.Umarov, O.Ekler, R.Jukov, A.Xujamuratov, A.A.Mananov, Sh.Sh.Shaaxmedov

№	Tadbir nomi	Amalga oshirish mexanizmi	Bajarish muddati	Ma'sullar
		ko'rsatkichlarini bajarilishini nazorat qilish va ta'minlash; 4. Natijada, 2025-yil yakuniga bank sof foydasi miqdorini 1,2 trln so'mga yetkazish (2025-yil davomida)		
10.2	Operatsion samaradorlik ko'rsatkichini (SIR) 2025 yil yakuni bo'yicha 24,6 foiz ko'rsatkichida ta'minlash.	1.Moliyalash manbalari, muddatlari va resurslarni boshqarishning samarali tizimini joriy qilish orqali moliyaviy manbalar foiz xarajatlarini optimallashtirish; 2.Daromad keltiruvchi aktivlar hamda foizsiz daromadlar ulushini oshirish orqali bankning sof daromadlarini 26,2 foizga oshirish; 3. Kredit qo'yilmalari tarkibida yuqori marjaga ega kreditlarni, shuningdek chakana kreditlar ulushini oshirish; 4. Bankning foiz xarajatlarini optimallashtirish maqsadida Bankka yirik miqdorda pul aylanmalariga ega yangi mijozlarni jalb qilish.(2025-yil davomida)	10.04.2025	D.Sh.Umarov, O.Ekler, R.Jukov, A.Xujamuratov, A.A.Mananov, A.Tolibov, Sh.Sh.Shaaxmedov
10.3	Bank daromadlarini oshirish choralarini ko'rish	1. Yuridik va jismoniy shaxslarga ko'rsatiladigan jozibador moliyaviy xizmat (chakana mijozlarga ko'rsatiladigan onlayn xizmatlar) turlarini ko'paytirish hamda rivojlantirish; 2. Bank xizmatlarining rentabelliligi nuqtai nazaridan o'rganib borish va xizmatlarning	10.04.2025	D.Sh.Umarov, O.Ekler, R.Jukov, A.Xujamuratov, A.A.Mananov, Sh.Sh.Shaaxmedov, T.Norov


№	Tadbir nomi	Amalga oshirish mexanizmi	Bajarish muddati	Ma'sullar
		zamonaviy va yuqori daromadli turlarini salmog'ini oshirib borish; 3. Bankning barcha bank xizmatlari markazlarida biznes jarayonlar va hujjat aylanish tizimini avtomatlashtirish darajasini oshirish maqsadida yangi dasturni joriy qilish orqali ma'muriy xarajatlarni kamaytirish; 4. Mahalliy tijorat banklariga kross sotuv amaliyotlari bo'yicha xizmat ko'rsatish ko'lamini kengaytirish orqali foizsiz daromadlarini oshirish. 5. Kichik va o'rta biznes sub'yektlarining maqsadli doirasi talab-ehtiyojlariga mos bo'lgan unikal xizmatlar paketini ishlab chiqish. 6. Masofaviy xizmat ko'rsatish ko'lamini kengaytirish orqali mijozlarni bankka bo'lgan qiziqishlarini yuksaltirish. 7. Mavjud chakana mijozlar bazasini quyi segmentlarga ajratish va ularning har biri uchun mo'ljallangan mahsulotlarni taklif qilish, har bir mijozga to'g'ri keluvchi mahsulot sonini yanada oshirish 8. Tadbirkorlar va xo'jalik sub'yektlari uchun nokredit mahsulotlarini "SQB Business" dasturi yordamida raqamlashtirish (2025-yil davomida)		

№	Tadbir nomi	Amalga oshirish mexanizmi	Bajarish muddati	Ma'sullar
11	XI. Kadrlar salohiyatini oshirish			
11.1	Bank xodimlarining innovatsion g'oyalarini tashkil etish, rivojlantirish va qo'llab-quvvatlash dasturi doirasida 50 nafar xodimlarni xorijiy konsultantlarni jalb etgan holda malaka oshirishlarini ta'minlash	Dastur ishtirokchilarini tanlash, tanlov mezonlarini ishlab chiqish, nomzodlarni baholash, guruhlarini shakllantirish; O'quv dasturini ishga tushirish, o'quv modullarini ishlab chiqish, ekspertlarni jalb qilish, treninglarni o'tkazish; Innovatsion loyihalarni amalga oshirish, mentorlik yordami, loyihalarni taqdimot qilish, eng yaxshi yechimlarni joriy etish.(2025-yil davomida)	10.04.2025	A.A.Ergashev, A.Orifjonov
11.2	Eng yaxshi nomzodlarni tezkor qidirish va tanlash jarayonlarini sun'iy intellekt orqali tashkil etish	Tizimni ishlab chiqish, texnik topshiriqni tayyorlash, algoritmlarni ishlab chiqish, HR tizimlari bilan integratsiya qilish; Sinovdan o'tkazish va takomillashtirish, pilot sinovlarini o'tkazish, fikr-mulohazalarni yig'ish, tizimni takomillashtirish; To'liq ishga tushirish, HR-mutaxassislarini o'qitish, barcha bo'limlarga joriy etish (2025-yil davomida)	10.04.2025	A.A.Ergashev, A.Orifjonov
11.3	Respublika ta'lim muassasalari orasidan 1 000 nafar yoshlar uchun ekologik tafakkur va ijtimoiy mas'uliyatni shakllantirish maqsadida ESG tamoyillari va barqaror rivojlanish maqsadlari bo'yicha ta'lim dasturlarini joriy etish	O'quv materiallarini tayyorlash, o'quv dasturini yaratish, uslubiy materiallarni tayyorlash; O'qituvchilarni tayyorlash, xodim-o'qituvchilarni tanlash, trenerlarni o'qitish; Dasturni amalga oshirish, pilot ta'lim muassasalarida boshlash,	10.04.2025	A.A.Ergashev, A.Orifjonov

№	Tadbir nomi	Amalga oshirish mexanizmi	Bajarish muddati	Ma'sullar
		dasturni kengaytirish. (2025-yil davomida)		
11.4	Xodimlarning kasbiy o'sishi va rivojlanishi uchun sun'iy intellekt yordamida 24/7 ish rejimida ishlaydigan virtual maslahatchi tizimini joriy etish	AI-tizimini ishlab chiqish, bilimlar bazasini yaratish, maslahat berish algoritmlarini ishlab chiqish; Tizimni sinash, pilot joriy etish, fikr-mulohazalarni yig'ish va tahlil qilish; To'liq ishga tushirish, HR tizimlari bilan integratsiya, xodimlarni tizimdan foydalanishga o'rgatish (2025-yil davomida)	10.04.2025	A.A.Ergashev, A.Orifjonov
11.5	2025-yil yakuniga qadar 200 nafar bank xodimlarini bank va moliya sohasida sun'iy intellektni joriy etish bo'yicha Respublikamizning eng ilg'or OTMlari yoki chet el kompaniyalarida malaka oshirishlarini tashkil etish	Dasturni ishlab chiqish, o'quv modullarini aniqlash, OTMlar bilan kelishish, o'quv jadvalini tuzish; Birinchi oqim, ishtirokchilarni tanlash, o'qitishni o'tkazish, natijalarni baholash; Ikkinchi oqim, ishtirokchilarni tanlash, o'qitishni o'tkazish, natijalarni baholash. (2025-yil davomida)	10.04.2025	A.A.Ergashev, A.Orifjonov
11.6	Bank xodimlarining innovatsion g'oyalarini tashkil etish, rivojlantirish va qo'llab-quvvatlash dasturi doirasida 50 nafar xodimlarni xorijiy konsultantlarni jalb etgan holda malaka oshirishlarini ta'minlash	Dastur ishtirokchilarini tanlash, tanlov mezonlarini ishlab chiqish, nomzodlarni baholash, guruhlarini shakllantirish; O'quv dasturini ishga tushirish, o'quv modullarini ishlab chiqish, ekspertlarni jalb qilish, treninglarni o'tkazish; Innovatsion loyihalarni amalga oshirish, mentorlik yordami, loyihalarni taqdimot qilish, eng	10.04.2025	A.A.Ergashev, A.Orifjonov

№	Tadbir nomi	Amalga oshirish mexanizmi	Bajarish muddati	Ma'sullar
		yaxshi yechimlarni joriy etish. (2025-yil davomida)		
12	XII. Bank transformatsiyasi va moliyaviy barqarorligini ta'minlash bo'yicha alohida tashabbus va takliflar			
12.1	Startup loyihalarni moliyalashtirish va bank ekotizimini kengaytirish	IT parklar bilan hamkorlikda ishlab startap loyihalarni tanlash; Loyihalarni bank dasturiy ta'minotlari bilan integratsiya imkoniyatlarini o'rganib chiqish; Loyihani realizatsiya qilish bo'yicha aniq yo'l xaritalarini ishlab chiqish (2025-yil davomida)	10.04.2025	Sh.I.Yakubov, N.E.Xusanov
12.2	Yashil iqtisodiyot yo'nalishdagi ustuvor vazifalar	Yashil iqlim jamg'armasi (GCF)ning akkreditatsiyasidan o'tish; "Yashil iqtisodiyot"ga o'tish bo'yicha manfaatdor tomonlar uchun konferensiyalarni tashkil qilish; bank mijozlariga ESG tamoyillarini joriy qilish bo'yicha xizmatlarni ko'rsatish; "Green University" bilan hamkorlikda "Yashil moliya" yo'nalishida o'quv-amaliy dastur ishlab chiqish va talabalarga amaliy tajribalar almashish; uglerod chiqindilarini hisoblash metodikasini joriy qilish. (2025-yil davomida)	31.12.2025	Sh.I.Yakubov, B.Sultonmurodov

Boshqaruv Raisining birinchi o'rinbosari
Ergashev Anvarjon Abdumajitovich



kelishuvchilar: J.Ismatov

<https://hujjat.sqb.uz/?pin=sM86gO91&id=0186e659-7c52-4ea2-896a-4e2b489dccbf>